



UDK: 355.1:340.13:004

Zohid ESHMURADOV,

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi "Harbiy boshqaruv va liderlik" kafedrasida katta o'qituvchisi, podpolkovnik
E-mail: z.eshmurodov@gmail.com

Dotsent M. Atavullayev taqrizi asosida

PROSPECTS OF THE SYSTEM OF USE OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN RAISING THE LEGAL CULTURE OF MILITARY PERSONNEL OF UZBEKISTAN

Annotation

This article reveals the features of management in the conditions of changing military and political situation of the form of armed struggle, the improvement of methods and means, equipment and technical, which are manifested in the sharp development of various types of hostilities.

Keywords: military political, column, line, readiness, precision, tactical actions, coherence, headquarters, management.

ПЕРСПЕКТИВЫ СИСТЕМЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В этой статье раскрыты особенности управления в условиях изменения военно-политической обстановки, формы вооружённой борьбы, совершенствовании способов и средств, техники и вооружения, которое проявляется в периоде резкого развития различных видов боевых действий.

Ключевые слова: военно-политический, колонна, рубеж, готовность, точность, тактические действия, слаженность, штаб, управление.

O'ZBEKISTON HARBIY XIZMATCHILARINING HUQUQIY MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH TIZIMINING ISTIQBOLLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada O'zbekiston harbiy xizmatchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimining istiqbollari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: harbiy-xizmat, sun'iy intellekt, qoida, munosabat, yuksaltirish, ko'nikma, ziddiyatlar, vazifa, shaylik, aniqlik, taktik harakat, uyushqoq, burch, faoliyat.

Kirish. O'zbekiston harbiy xizmatchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimi istiqbollari jamiyatdagi texnologik taraqqiyot va huquqiy madaniyat o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash, harbiy xizmatchilarni huquqiy bilim va ko'nikmalarga ega qilib tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirishda texnologiyalarning imkoniyatlaridan foydalanishga asoslanadi. Harbiy xizmatchilar uchun maxsus tayyorlangan elektron o'quv kurslari, interaktiv darslar va multimedia resurslar yordamida huquqiy ta'lim berish. Bunday platformalar huquqiy bilimlarni tez va samarali o'zlashtirish imkoniyatini beradi. VR yordamida harbiy xizmatchilar real vaziyatlarga mos huquqiy sharoitlarni tajribadan o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Sun'iy intellekt esa individual bilim darajasini baholash, mashg'ulotlarni shaxsiylashtirish va tavsiyalar berishda yordam beradi. Huquqiy simulyatsiya va o'yinli treninglar: Simulyatsiya va o'yin texnologiyalari yordamida huquqiy bilimlarni amaliyotda sinab ko'rish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa harbiy xizmatchilarga huquqiy muammolarni aniqlash va ularni hal qilishda amaliy ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Harbiy xizmatchilar o'rtasida huquqiy axborotni almashish va huquqiy masalalarni muhokama qilishda AKT vositalaridan samarali foydalanish huquqiy madaniyatni yuksaltirishda muhim omil bo'ladi. Huquqiy masalalar bo'yicha tezkor maslahatlar beruvchi onlayn maslahatchilar yoki chat-botlar ishlab chiqish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligi oshiriladi va huquqiy madaniyat yuksaladi. Bu yo'nalishlar O'zbekiston harbiy xizmatchilarining huquqiy madaniyatini zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalangan holda yuksaltirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bu yondashuvlar nafaqat bilimni

oshirish, balki harbiy xizmatchilarda mustahkam huquqiy ong va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirish bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish masalasini huquqiy falsafa nuqtai nazaridan tahlil qilar ekanmiz, huquqiy madaniyatning jamiyat ongini va davlat huquqiy hayotining tizimli elementi sifatidagi rolini alohida ta'kidlash lozim. Ko'pgina tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, huquqiy madaniyat uch darajani o'z ichiga oladi: kundalik, nazariy va kasbiy, va ularning har biri huquqiy ong, xulq-atvor va huquqqa munosabatning muayyan jihatlarini bilan bog'liq.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda bu darajalar alohida ahamiyatga ega. Huquqiy madaniyat mamlakatning o'ziga xos tarixiy, madaniy va ijtimoiy sharoitlarini aks ettiradi. O'ziga xos an'ana va qadriyatlariga ega O'zbekiston sharoitida harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish jarayoni ham milliy g'oyalar, ma'naviyat va ijtimoiy qadriyatlarini mustahkamlash bilan bog'liq. Xususan, mahalla va oila tuzilmalari kabi ijtimoiy institutlarning ijtimoiy normalarni shakllantiradigan, huquq va adolat haqidagi g'oyalarga ta'sir etuvchi xususiyatlarini hisobga olish zarur. O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyati milliy qadriyatlar, jumladan, adolat, ijtimoiy hamjihatlik va an'analarga hurmat tamoyillariga asoslanishi kerak. Bu huquq normalarini mavjud ijtimoiy munosabatlarga uzviy integratsiyalashuviga imkon beradi, ularning barcha darajalarda qabul qilinishini ta'minlaydi.

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, huquqiy ta'lim va tarbiya borasidagi ishlar tizimli va uzviy olib borilmayapti. Uzoq yillar davomida bu masala huquqni muhofaza qiluvchi organlar va ayrim davlat organlarining ishi sifatida qarab

kelinib, bunda oila, mahalla va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining ishtiroki yetarlicha ta'minlanmagan [1].

Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida:

aniq chora-tadbirlar asosida harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining, Temurbeklar maktablari o'quvchilarining huquqiy bilimlarini tizimli ravishda oshirib borish, dunyoqarashi va fikrlash doiralari kengaytirish;

harbiy qismlarda har oyning juma kuni "Huquqiy savodxonlik soati"ni tashkil qilish, unda mamlakatimizning barcha jabhalarida amalga oshirilayotgan islohotlar, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mohiyati va ahamiyatini harbiy xizmatchilarga yetkazish ishlari amalga oshirilmogda [2].

Huquqiy me'yorlarni madaniy an'analar bilan bunday uyg'unlashtirish harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini mustahkamlash, ularni huquqiy me'yoriy hujjatlarni qabul qilish qobiliyatini oshirish imkonini beradi. Harbiy xizmatchilarning huquqiy ongini tarbiyalash ularning huquqiy vakolatlarini rivojlantirish, o'z huquq va majburiyatlarini anglash, shuningdek, qonun va tartibni hurmat qilish bilan bog'liq jarayondir. Ofitser va askarning huquqiy ongi qonunga shaxsiy munosabatni va uni kundalik xizmatda qo'llashni o'z ichiga oladi. Bu nafaqat huquqiy normalarni bilish, balki ularning xizmat va umuman jamiyatdagi ma'nosi, funksiyasi va ahamiyatini tushunishdir.

Tadqiqot metodologiyasi. Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini shakllantirish ko'p jihatdan davlat-huquqiy mafkura samaradorligiga bog'liq bo'lib, bu qonun va tartibni hurmat qilishni oshirishga yordam beradi. O'zbekistonda davlat-huquqiy mafkura suverenitetni mustahkamlash, milliy o'zlikni anglash va shaxs huquq va erkinliklarini hurmat qilish, adolat va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlash g'oyalari asoslanishi kerak. Huquqiy madaniyatning zamonaviy pedagogikasi o'qitishning interfaol usullarini qo'llash, raqamli texnologiyalardan foydalanish, huquqiy vaziyatlarni modellash va simulyatsiya o'qitishni joriy etishni nazarda tutadi. Bunday innovatsion yondashuvlar harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini samarali oshirish, xizmat doirasida qonunchilikka rioya etish bilan bog'liq amaliy muammolarni hal etishda huquqiy ko'nikma va malakalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Harbiy xizmatchilar uchun huquqiy madaniyat ularning kasbiy mahorati va axloqiy fazilatlarini bilan chambarchas bog'liq. Harbiy xizmat faoliyatni tartibga soluvchi, qonuniylik va tartibni ta'minlovchi huquqiy normalar va xulq-atvor qoidalarini chuqur tushunishni nazarda tutadi. Bundan tashqari, huquqiy madaniyatni rivojlantirish nafaqat huquqiy bilimlarni shakllantirish, balki ornomus, halollik va intizom tamoyillarini xulq-atvorda mustahkamlashdir. Huquqiy madaniyatni shakllantirish huquqiy xulq-atvor va axloqiy munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy ishlarni o'z ichiga oladi. Harbiy kadrlarni tayyorlash qonunning ahamiyatini, uning ijtimoiy barqarorlik va intizomni ta'minlashdagi rolini tushunishga qaratilgan bo'lishi kerak. Xizmat doirasida huquqiy normalarning amalga o'lanilishi nafaqat huquqiy savodxonlikni shakllantirishga, balki o'z xizmat vazifalarini bajarishga ongli, intizomli munosabatda bo'lishiga ham xizmat qiladi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatining ijtimoiy funksiyasi boshqa ijtimoiy institutlar, masalan, oila, ta'lim muassasalari, jamoat birlashmalari bilan o'zaro munosabatlarni o'z ichiga oladi. Harbiy xizmat va fuqarolik institutlari o'rtasidagi aloqani mustahkamlash harbiy xizmatchilarning ijtimoiy va huquqiy mas'uliyatini rivojlantirishga, ularning fuqarolik jamiyati huquq va erkinliklari haqidagi tushunchalarini oshirishga xizmat qilmoqda. O'zbekistonda adolat va qonun ustuvorligi tamoyillariga yo'naltirilgan suveren davlat taraqqiyoti sharoitida huquqiy madaniyatni shakllantirish ham muhim jihatdir. Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga doir davlat siyosatining bir qismi sifatida jamiyat manfaatiga erishish, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish vositasi, shuningdek, davlatchilik va davlatchilikni mustahkamlashning asosi sifatida huquq haqida yaxlit tushunchani shakllantirish zarur. Shunday

qilib, bu boradagi davlat siyosatini takomillashtirish milliy an'analar, huquqiy normalar va huquqiy ta'limning zamonaviy amaliyotini hisobga oladigan kompleks yondashuvga, shuningdek, innovatsion texnologiyalar va pedagogik usullardan faol foydalanishga asoslanishi kerak [3].

Huquqiy targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish uchun zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish muhim. Bu qo'llanmalar virtual treninglar, webinarlar, elektron kitoblar, va interaktiv video darslar orqali huquqiy bilimlarni yetkazishni nazarda tutadi. Zamonaviy texnologiyalar orqali huquqiy targ'ibotni individuallashtirish va bu bilan ishtirokchilarning bilim olish jarayonini yana-da samarali qilish mumkin.

Innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda huquqiy targ'ibot guruhlarini uchun axborot platformalari yaratish mumkin. Misol uchun, onlayn forumlar, mobil ilovalar va chat-botlar orqali qonunchilikka oid savol-javoblar tizimini yo'lga qo'yish. Bu xodimlar o'rtasida huquqiy bilimlarni samarali targ'ib qilishga yordam beradi. Shunday qo'llanmalar guruh a'zolariga huquqiy masalalar bo'yicha tezkor maslahat berish imkoniyatini ham beradi. Xodimlarning huquqiy savodxonligini baholashda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish mumkin. Misol uchun, onlayn test tizimlari va virtual simulyasiyalar orqali xodimlar huquqiy bilimlarini va malakasini baholash. Shu bilan birga, ishga qabul qilish jarayonida xodimlarning huquqiy savodxonligini tekshiruvchi avtomatlashtirilgan dasturlar yaratish mumkin. Bu jarayon shaffofligini oshirib, xodimlarning haqiqiy bilim va malaka darajasini aniqlashga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalar yordamida xodimlarning huquqiy bilimlarini oshirish maqsadida onlayn kurslar va webinarlar tashkil qilish mumkin. Bunday kurslar interaktiv tarzda o'tkazilib, huquqiy bilimlarni amaliy holatlarda qo'llashni o'rgatadi. Shuningdek, onlayn platformalarda huquqiy maslahat beruvchi chat-botlar va ma'lumotlar bazasini yaratish mumkin. Har bir oylik doirasida o'tkaziladigan tadbirlarni axborot texnologiyalari orqali onlayn tarzda o'tkazish mumkin. Misol uchun, korupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha virtual treninglar, huquqiy madaniyat bo'yicha onlayn ma'ruzalar, va odob-axloq mavzusidagi onlayn forumlar tashkil etish mumkin. Bu tadbirlar interaktiv tarzda o'tkazilsa, xodimlarning faol ishtirokini ta'minlaydi va ularning bilimlarini yana-da oshirishga yordam beradi.

Mas'uliyatsizlik va huquqiy nigilizmning oldini olish uchun interaktiv huquqiy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish mumkin. Shuningdek, huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha onlayn platforma va mobil ilovalar yaratish mumkin. Ushbu ilovalar xodimlarga qonunbuzarliklarni yozish va xabar berish, shuningdek, huquqiy maslahatlar olish imkonini beradi. Kadrlarni tayinlash jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanib shaffoflikni ta'minlash mumkin. Misol uchun, onlayn platformalar orqali kadrlarni tanlov jarayonini shaffof tarzda tashkil qilish va natijalarni oshkor etish mumkin. Bu kadrlar tanlovi shaffof va adolatli qilishga yordam beradi. Huquqiy targ'ibot ishlari a'lochilariga maxsus ko'krak nishoni ta'sis etishda ham innovatsion texnologiyalardan foydalanish mumkin. Misol uchun, onlayn platforma orqali nomzodlarni baholash va mukofotlash jarayonini tashkil qilish mumkin. Bu jarayon shaffofligi va xolisligiga hissa qo'shadi.

Tahlil va natijalar. Har bir davlat organi va tashkilotning rasmiy veb-saytida "Huquqiy savodxonlik" ruknlarini tashkil qilish orqali huquqiy bilimlarni keng targ'ib qilish mumkin. Bu ruknlar orqali qonun hujjatlari mazmunini tushuntiruvchi ma'lumotlar, huquqiy maslahatlar, va interaktiv testlar joylashtirilishi mumkin. Bu yo'nalishlarda innovatsion texnologiyalardan foydalanish orqali huquqiy madaniyatni yuksaltirishda sezilarli natijalarga erishish mumkin. Bu nafaqat harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimlarini oshirishga yordam beradi, balki huquqiy madaniyatni umumiy yuksaltirishga ham hissa qo'shadi.

Yoshidan kelib chiqib aholi huquqiy savodxonligining darajasini aniqlash va buning asosida fuqarolarning huquqiy bilim darajasini oshirish uchun minimal talablarni ishlab chiqish zarur.

Bu talablar harbiy xizmatchilar uchun maxsus ishlab chiqilishi va ularning vazifalarini bajarish jarayonida qonunlarning to'g'ri qo'llanilishini ta'minlashga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. innovatsion texnologiyalar asosida onlayn platforma va mobil ilovalar orqali huquqiy bilimlarni baholash va o'rganish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Bu jarayon harbiy xizmatchilarga interaktiv mashg'ulotlar va testlar orqali huquqiy savodxonlikni oshirishga yordam beradi[2].

Advokatlik tuzilmalari va advokatlar tomonidan aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamiga bepul ixtiyoriy yuridik yordam ko'rsatish (pro bono) tizimini rivojlantirish ham harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirishga hissa qo'shadi. Bu yordam tizimi harbiylar va ularning oila a'zolariga qonuniy masalalarni hal etishda qo'llab-quvvatlaydi, bu esa ularning huquqiy bilimlarini oshirishga yordam beradi.

Qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini tekzor yetkazish va tushuntirish tizimini takomillashtirish harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda muhimdir. Bu maqsadda innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda interaktiv veb-saytlar, mobil ilovalar, va multimedia vositalari orqali huquqiy ma'lumotlar tarqatish mumkin. Bu uslublar orqali harbiy xizmatchilar qonunlar va huquqiy normalar haqida tez va oson ma'lumot olishlari mumkin.

Harbiy xizmatchilar uchun axborot-resurs markazlari hamda axborot-kutubxona fondlarini yuridik adabiyotlar bilan boyitish ularning huquqiy bilimlarini oshirishda muhimdir. Yuridik adabiyotlarning elektron versiyalarini yaratish va ularni onlayn platformalar orqali taqdim etish harbiylar uchun bilim olishni osonlashtiradi.

Davlat organlari huzuridagi axborot-tahlil multimedia markazlarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini kuchaytirish harbiy xizmatchilar uchun dolzarb huquqiy masalalar bo'yicha to'liq ma'lumot olish imkoniyatini yaratadi. Harbiy xizmatchilarni qiziqtiradigan huquqiy masalalarni aniqlash va tahlil qilish orqali multimedia materiallar tayyorlash va ularni tarqatish mumkin.

Aholining kundalik ehtiyojidan kelib chiqib, harbiy xizmatchilarni qiziqtirgan huquqiy mavzular bo'yicha "So'rov bo'yicha huquqiy targ'ibot" loyihasini amalga oshirish harbiy xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirishda samarali bo'lishi mumkin. Maxsus mobil ilovalar va veb-saytlar orqali huquqiy maslahatlar va ma'lumotlar taqdim etish harbiylar uchun zarur ma'lumotlarning tez va oson olinishini ta'minlaydi[3].

Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda munosib hissa qo'shgan huquq targ'ibotchilarining faoliyatini rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi huquq targ'ibotchisi" va "Huquqiy targ'ibotni amalga oshirishda eng yaxshi innovatsion loyiha" tanlovlari o'tkazish orqali huquqiy madaniyatni oshirish mumkin. Bu tanlovlar harbiy xizmatchilar orasida huquqiy savodxonlikni oshirishda eng samarali va innovatsion usullarni izlab topishga yordam beradi [4.]

Davlat ramzlari bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantirish orqali harbiy xizmatchilarda mamlakatga daxldorlik va vatanparvarlik hisini kuchaytirish uchun videoroliklar tayyorlash mumkin. Bu videoroliklar orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishga yo'naltirilgan tadbirlar amalga oshiriladi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida ularga huquqiy yodgorliklar va huquqshunos olimlar faoliyati haqida ma'lumot berish, shuningdek, tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyatini o'rganish, ularni keng ommaga targ'ib qilish orqali huquqiy bilimlarini oshirish mumkin.

Harbiy xizmatchilar uchun ijtimoiy-huquqiy videoroliklar tayyorlash va ularni televideniye va ijtimoiy tarmoqlarda tarqatish orqali ularning huquq va majburiyatlari haqida ma'lumot berish, shuningdek, qonunga itoatkorlik ruhida tarbiyalash mumkin.

Advokatlik yoki huquqshunos faoliyatiga bag'ishlangan badiiy film va seriallar, qisqa metrajli filmlar, va korrupsiyaga qarshi kurash mavzusida ijtimoiy videoroliklar tayyorlash, shuningdek, axborot materiallari orqali aholini qonunga itoatkorlik

ruhida tarbiyalash mumkin. Mazkur tadbirlar harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda muhim qadam bo'lishi mumkin.

Harbiy xizmatchilar oilalarida mehnat migrantlari bo'lsa, ularning huquqlarini himoya qilish va kerakli ma'lumotlar taqdim etish bo'yicha maxsus axborot sayti yaratish ham huquqiy madaniyatni yuksaltirishda samarali bo'ladi.

Nogironligi bo'lgan shaxslar va ozodlikdan mahrum etilgan shaxslar uchun huquqiy ma'lumotlarni yetkazish, ularning ijtimoiy himoyasiga oid huquqlariga to'plamlarni tayyorlash va masofadan ta'lim olish imkoniyatlarini yaratish, harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda ham ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimi, ularning huquqiy bilimlarini oshirish va huquqiy savodxonlikni yuksaltirishga yordam beradi. Bu jarayonda interaktiv platforma, mobil ilovalar, multimedia vositalari va ijtimoiy sheriklik asosida tadbirlarni tashkil etish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy ongi va madaniyati yuksalishiga erishish mumkin.

Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi: Bu baza qonunlar va huquqiy hujjatlarning barcha ma'lumotlarini o'z ichiga olgan bo'lib, harbiy xizmatchilar va boshqa foydalanuvchilar uchun juda qulay vosita hisoblanadi. Bu baza orqali xizmatchilar huquqiy ma'lumotlarni tez va aniq topishi, shuningdek, ularning huquqiy madaniyatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu hujjatlardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish maqsadida bazani doimiy yangilash va unga qidiruv mexanizmini kiritish lozim. Bu platforma huquqiy ma'lumotlarning markazlashtirilgan holda foydalanuvchilarga taqdim etilishini ta'minlaydi. Yuridik lug'at va elektron kutubxona xizmatchilarning huquqiy atamalarini to'g'ri tushunishi va huquqiy bilimlarini kengaytirishga yordam beradi[4].

Maqsadli auditoriyalar uchun majburiy kurslarni tashkil etish, masalan, davlat xizmatchilari va harbiy xizmatchilar uchun, ularning huquqiy bilimlarini muntazam ravishda yangilashga yordam beradi. Bu kurslarni onlayn platforma orqali tashkil etish har bir xizmatchining huquqiy bilimlarini o'z vaqtida olishini ta'minlaydi. Advice.uz platformasi turli hayotiy holatlar bo'yicha huquqiy yechimlarni taklif etish va davlat xizmatlari ko'rsatish elektron tizimi bilan integratsiya qilish orqali xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, harbiy xizmatchilarga qonunlar va buyruqlar haqida ma'lumotlar berish, ularning huquqlari va majburiyatlari haqida to'liq ma'lumot berish orqali xizmatchilarning huquqiy ongini oshirish mumkin.

Turli bosqichlarga ega bo'lgan «Huquqiy test» loyihasi orqali fuqarolar, shu jumladan harbiy xizmatchilar ham o'zlarining huquqiy bilim darajasini baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu testlar o'quvchilarning o'ziga ishonchini oshirish va ularning qonunchilik sohasidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi. Facebook, Telegram, Twitter, YouTube, Mytube.uz va boshqa ijtimoiy tarmoqlarda davlat organlari va tashkilotlarining kanallarini tashkil etish hamda ular orqali huquqiy targ'ibot materiallarini joylab borish harbiy xizmatchilar va aholi orasida huquqiy bilimlarni kengaytirishga xizmat qiladi. Bu yerda har bir foydalanuvchiga tegishli materiallarni manzilli yetkazish imkoniyati mavjud bo'ladi. «Huquqiy axborot» Telegram kanali orqali qonun hujjatlari mazmunini qisqacha tahliliy yoritish va aholining huquqiy bilimlarini yuksaltirishga qaratilgan huquqiy materiallarni tarqatish mumkin. Bu xizmatchilarning kundalik faoliyatida huquqiy bilimlarini yangilashga va oshirishga yordam beradi.

Mamlakat aholisi orasida so'rovlar o'tkazish orqali ularning huquqiy madaniyati va huquqiy ong darajasini tahlil qilish, shunga ko'ra huquqiy axborotni manzilli yetkazish ishlarini tashkil etish mumkin. Bu huquqiy targ'ibotni yana-da samaraliroq va maqsadliroq qilish imkonini beradi. O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish juda samarali usul bo'lib, bu chora-tadbirlar orqali huquqiy ma'lumotlarni manzilli

yetkazish va xizmatchilarning huquqiy savodxonligini oshirish mumkin.

O'zbekistonda harbiy xizmatchilarining huquqiy madaniyatini yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish tizimini joriy etish ushbu sohaga bo'lgan qiziqish va amaliy yechimlar bilan boyitilishi mumkin. Harbiylar huquqiy madaniyatini oshirish uchun turli yo'nalishlar bo'yicha innovatsion texnologiyalar va ommaviy axborot vositalari orqali amalga oshiriladigan takliflarni tahlil qilamiz:

Huquqiy mavzularni kengaytirilgan teleko'rsatuvlar va radioko'rsatuvlar orqali yoritish orqali aholi orasida qonunga hurmat ruhini tarbiyalash mumkin. Bunda huquqiy bilimlarni ommalashtirish va ularning kundalik hayotdagi ahamiyatini anglatish muhim. OAV orqali huquqiy ma'lumotlar va qonunchilikdagi o'zgarishlar haqida muntazam axborot berib borish orqali huquqiy ongni oshirish mumkin. Ommaviy axborot vositalarining huquqiy targ'ibot sohasidagi faoliyatini rag'batlantirish uchun tegishli huquqiy mexanizmlar yaratish zarur. Bunga soliq imtiyozlari, grantlar va moddiy yordamlar kabi chora-tadbirlar kiritilishi mumkin. Shuningdek, huquqiy targ'ibotga bag'ishlangan maxsus loyihalarga qo'llab-quvvatlov berish va ularni jamoatchilik tomonidan baholash tizimini yaratish ham samarali bo'lishi mumkin [5].

Internet tarmog'iga huquqiy davriy nashrlarni integratsiya qilish orqali, ularning elektron nusxalari joylashtirish va ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlikda huquqiy ma'lumotlarni internet orqali tarqatish mumkin. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish, mobil ilovalar yaratish va elektron axborot portallari orqali huquqiy ma'lumotlarni berish aholining huquqiy xabardorligini oshirishga xizmat qiladi. Aholining huquqiy xabardorligini oshirish maqsadida «Huquqiy axborot» radio loyihasini tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Bu radio loyihasida huquqiy mavzularda tahliliy eshittirishlar, mutaxassislar bilan intervyular va qonunchilikdagi yangiliklar bilan bog'liq eshittirishlarni olib borish mumkin.

Huquqiy sohani yorituvchi jurnalistlarni tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yaratish orqali ommaviy axborot vositalarida huquqiy ma'lumotlarni to'g'ri va aniq yetkazish mumkin. Jurnalistlar uchun maxsus treninglar, seminarlar va kurslarni tashkil qilish, shuningdek, ularning huquqiy bilimlarini muntazam yangilab borish tizimini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi. Tahliliy tok-shoular va bahs-munozaralar orqali qonun hujjatlari haqida mustaqil ekspertlar, mutaxassislar va aholining fikri va munosabatini yoritish imkonini yaratish mumkin. Bu orqali qonunchilik va huquqiy muammolar bo'yicha turli nuqtai nazarlardan bahs olib borish va aholining huquqiy madaniyatini oshirish mumkin. Fuqarolarning huquqiy ma'rifatini oshirish va huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan ta'sirchan teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlarni tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Bunda huquqiy muammolarga doir hayotiy misollar orqali qonunga hurmat tuyg'usini kuchaytirishga erishish mumkin.

Ommaviy axborot vositalarining jamoatchilik nazoratini ta'minlash borasidagi rolini kuchaytirish uchun davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlik qilish zarur. Bunda huquqiy axborotni ochiq va shaffof yetkazish hamda jamoatchilik fikrini hisobga olish muhimdir.

Davlat organlari axborot xizmatlarining huquqiy axborotni tarqatishdagi roli va o'rini kuchaytirish orqali huquqiy

ma'lumotlarni tezkor va aniq yetkazish mumkin. Shuningdek, davlat organi nufuziga ta'sir ko'rsatadigan salbiy xabarlar bo'yicha zudlik bilan munosabat bildirish mexanizmini yaratish ham muhim ahamiyatga ega. Harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish va ommaviy axborot vositalarining roli juda muhim. Bunda huquqiy axborotlarni tarqatish va qonunga hurmat tuyg'usini oshirishda zamonaviy texnologiyalardan keng foydalanish kerak.

Innovatsion texnologiyalar, ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), huquqiy madaniyatni shakllantirishda va yuksaltirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Masofaviy ta'lim platformalari, mobil ilovalar, virtual trenajyorlar va interaktiv multimedia kontenti orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy bilimini oshirish mumkin. Bu kabi zamonaviy usullar o'quv materiallarining sifatini oshirish, ularni mantiqiy va interaktiv shaklda yetkazishga yordam beradi.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanish huquqiy bilimlarni amaliy faoliyat bilan birlashtirishga imkon yaratadi. Masalan, simulyasiyalari va virtual voqealar orqali harbiy xizmatchilar turli huquqiy holatlarda o'zini qanday tutish kerakligini amalda ko'rib chiqishi mumkin. Bu ularning amaliy mashg'ulotlari va huquqiy bilimlarini birlashtirib, huquqiy onglarini oshirishga yordam beradi. Farmonda ta'kidlanganidek, huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirishda ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishi muhim ahamiyatga ega. Bu yerda innovatsion texnologiyalar asosida o'qitish metodlarini joriy etish muhimdir. Bunda yuridik bilimlarni yetkazishning doimiy va tizimli asosda tashkil etilishi, turli xil mashg'ulotlar, seminarlar, treninglar, vebinarlar orqali huquqiy bilimlarni oshirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Huquqiy madaniyatni oshirishda ommaviy axborot vositalari muhim rol o'ynaydi. Ular orqali jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha keng qamrovli axborot tarqatish mumkin. Televideniye, radio, gazetalar, jurnallar va internet saytlari orqali huquqiy savodxonlikni oshirish, huquqiy munosabatlari va qonunchilikni targ'ib qilish mumkin.

Xulosa va takliflar. Huquqiy madaniyatni yuksaltirishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish O'zbekiston harbiy xizmatchilarining huquqiy bilimini oshirish va huquqiy ongini yuksaltirishda katta ahamiyatga ega. Bu usullar ta'lim va huquqiy tarbiya jarayonini zamonaviy, interaktiv va samarali qilib tashkil qilishga imkon beradi. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish orqali harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha islohotlarni amalga oshirish mumkin.

Harbiy-huquqiy ta'limda zamonaviy texnologiyalarni integratsiyalash uchun kompleks strategiyani amalga oshirish tizimli yondashuvni talab etadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu strategiya ta'lim jarayonini optimallashtirish, huquqiy bilimlarni zamonaviy vositalar orqali tezkor va samarali o'rganish, shuningdek, harbiy xizmatchilarning kasbiy savodxonligini oshirish uchun mo'ljallangan.

O'zbekistonda harbiy xizmatchilarning huquqiy madaniyatini oshirish davlat siyosatida muhim o'rin tutadi. Huquqiy-falsafiy nuqtai nazardan, bu davlat siyosati jamiyatda huquqiy madaniyatni rivojlantirish, harbiy xizmatchilarning qonun-qoidalarga rioya qilishini ta'minlash, va ularning axloqiy-ijtimoiy rivojlanishiga e'tibor qaratishga qaratilgan. Bu siyosatning yuksalishi quyidagi jihatlarini qamrab olishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi qarori. – Toshkent, – № 467-1. 1997 yil 29 avgust. – 102 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi 1997 yil 8 dekabr (oila yili – 1998 yil) // Xalq so'zi. – 1997. – 10 dekabr.
3. Oila manfaatlarini ta'minlash borasida 1998 yilda amalga oshiriladigan tadbirlari davlat dasturi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 yanvar qarori // Xalq so'zi. – 1998. – 28 yanvar.
4. O'zbekiston Respublikasining harbiy doktrinasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori. – Toshkent, – № 105-1. 1995 yil 30 avgust // Xalq so'zi. – 1995 yil 30 aprel.
5. “Barkamol avlod yili” davlat dasturi. – Toshkent: O'zbekiston, 2010. – 80 b.